



**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE STORIES OF NAZAR ESHONQUL AND JULIO CORTASAR

Muqaddas Bo‘riboeva

Master degree student, A. Navo‘i Tashkent state

Uzbek Language and Literature

(Tashkent, Uzbekistan)

**Abstract:** It is known from history that spiritual, cultural, socio-political and trade ties between the countries of the West and the East began to emerge in the early Middle Ages. The problem of literary influence is even more ancient. To prove this, it is enough to mention similar features of the plot and characters of the epics, which are examples of folklore. This process is developing day by day. This article examines the literary influence of world literature on Uzbek literature using the example of several stories. In particular, the work of Julio Cortazar, a great representative of Latin American literature, a representative of fascinating realism, is analyzed and comparatively studied with the stories of Nazar Eshonkul. Issues of creative originality and literary influence are considered.

**Key words:** literary influence, title, symbolic meaning, image, conquest, Motherland, plot scope, artistic detail.

## NAZAR ESHONQUL VA XULIO KORTASAR HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

**Muqaddas Bo'riboeva****A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti  
magistranti (Toshkent, Ozbekiston)**

**Annotatsiya:** Tarixdan ma'lumki, G'arb va Sharq davlatlari o'rtasida ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va savdo-sotiq borasida o'zaro aloqalar ilk o'rta asrlardan o'ta boshlagan. Adabiy ta'sir masalasi esa undan-da qadimiyroq. Bu fikrni dalillash maqsadida folklor namunalari bo'lgan dostonlardagi syujet hamda qahramonlarning bir-biriga o'xshash xususiyatlarini eslatishning o'zi ham yetarli. Bu jarayon kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada esa jahon adabiyotining o'zbek adabiyotiga adabiy ta'siri bir necha hikoyalar misolida tadqiq etiladi. Xususan, Nazar Eshonqul hikoyalari Lotin Amerikasi adabiyotining yirik vakili, fusunkor realizm namoyandasi Xulio Kortasar ijodi tahlil qilinadi hamda qiyosiy o'rganiladi. Ijodiy o'ziga xoslik va adabiy ta'sir masalalari haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'sir, sarlavha, ramziy ma'no, tasvir, istilo, Vatan, mavzu ko'lami, badiiy detal.

**Аннотация:** Из истории известно, духовно-культурные, общественно-политические и торговые связи между странами Запада и Востока начали зарождаться с раннего средневековья. Проблема литературного влияния еще более древняя. Чтобы доказать это, достаточно упомянуть схожие черты сюжета и персонажей эпосов, являющихся образцами фольклора. Этот процесс развивается день ото дня. В данной статье литературное влияние мировой литературы на узбекскую литературу рассматривается на примере нескольких рассказов. В особенности, анализируется и сравнительно изучается с рассказами Назара Эшонкула творчество Хулио Кортасара, великого представителя латиноамериканской литературы, представителя увлекательного реализма. Рассмотрены вопросы творческого своеобразия и литературного влияния.

**Ключевые слова:** литературное влияние, заглавие, символическое значение, образ, завоевание, Родина, объем сюжета.

**Kirish.** Sharq va G‘arb o‘rtasida ilm-fan, savdo-sotiq borasida xalqaro aloqalar doimiy rivojlanib kelgan, adabiyot sohasi ham bundan mustasno emas. Adabiy ta‘sir natijasida dunyoning turli hududlarida yashayotgan insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi, qiziqishlari hamda ruhiyatidagi tebranishlar xususida badiiy yaratishlar paydo bo‘la boshladi. G‘arb adabiyotidagi atamalar, shakllar va metodlarning unsurlari milliy adabiyotimizda ham namoyon bo‘ladi. Bu adabiy ta‘sirni biz Nazar Eshonqul ijodida yaqqol ko‘zga tashlanganligini guvohi bo‘lamiz. Yozuvchi jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘rganish bilan birga ulardagi ajoyib uslub va yo‘nalishlarni milliy nasrimizga singdirib kelmoqda.

**Asosiy qism.** Nazar Eshonqulning asarlarini kuzatganimizda quyidagi ikki hikoyasi e‘tiborimizni tortdi. Bular “Istilo” (“Evolutsiya”) va “Ochilmagan eshik”. Ushbu hikoyalar diqqatimizni tortganligining sababi – hikoyalarning sarlavhasi Xulio Kortasarning “Zabt etilgan uy” hamda “Mixlab tashlangan eshik” hikoyalari bilan o‘xshashligidir. Aynan sarlavha ilk taassurot, ilk muloqot sanaladi. Asar sarlavhalaridagi “uy” va “eshik” so‘zlari o‘ziga xos ramziy ma‘no ifodalaydi. Uyni yuragimiz, vujudimiz deb sanaydigan bo‘lsak, unda eng inja tuyg‘ular pinhon saqlanishi, dardlar, iztiroblar, sog‘inchlar va quvonchlarni ham mushtdekkina ko‘ngilga singib borishi o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan. Yuqoridagi hikoyalarni qiyosiy tahlilga tortamiz. X. Kortasar “Zabt etilgan uy” va N. Eshonqul “Istilo” bu ikki hikoya ham boshdan oyoq ramzlar asosiga qurilgan bu ramzlarning kaliti esa hikoyaning yozilgan vaqtidagi muhit va sarlavhasidir. “Istilo” hikoyasida nomi keltirilmagan qahramonning ramziy ta‘qibdan qochishi bilan boshlanadi hikoyani o‘qir ekansiz qahramonning qiyofasi ba‘zida insonga, ba‘zida hayvon ko‘rinishiga o‘xshash tasvirlanadi: *“Bu ochlikdan edi; uch kuncha avval shahar chekkasidagi axlatlar uyumi orasidan bir bo‘lak chaynalmagan go‘sht parchasini topib olgandan beri hech vaqo tatimagan va oshqozoni o‘zini unutib qo‘yganidan norozi bo‘layotganday har dam-har damda quldurab qo‘yardi”*. [2, b.238] Hikoya syujetidan anglashiladiki, u yashaydigan shahar qandaydir ulkan maxluq tomonidan

zabt etilgan. Va kundan-kunga maxluq shahar ayollarini homilador qilib, maxluqchalar ko'paymoqda. Hikoya mustaqillikning ilk yillarida yozilgan bo'lib, asardagi voqealar mustamlaka yillardagi muhit va vaziyatni bilvosita tasvirlagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davr bilan bog'lashimizga asardagi quyidagi nuqtalar sabab bo'ladi: "*G'animlar, aftidan, bu shaharni shiorlar saltanatiga aylantirmoqchiga o'xshardi...*" [2, b.240]; "*Maxluqning terisi zirxday qalin, g'adir-budir edi. Qorni kukuzak bo'lib gezarib ketgani uchun qizil yaltiroq mato bilan yopib qo'yilgandi*" [2, b.258]. "*Dumi o'ynoqlab goh u binoni, goh bu binoni xarobaga aylantirar, boshida ko'm-ko'k toj va hozirgina o'zi yanchib-bosib o'tgan odamlarning qoniga botirib olingandek tug' xilpirardi*" [2, b.259].

X. Kortasarning "Zabt etilgan uy" hikoyasining ham mavzu ko'lami aynan xuddi shunday. Endi hikoya kontekstidan olingan ayrim parchalar orqali yuqoridagi fikrimizni dalillashga harakat qilamiz: "*Bizga uy juda yoqardi, chunki u eski va keng bo'lishidan tashqari (o'sha paytlar eski uylarining qurilish materiallari foydali kimoshdi savdosiga qo'yilar edi), buvilar va buvalarimiz, ota-bobomiz, otanalarimiz va hammamizning bolalik xotiralarimiz shu uy bilan bog'liq edi.*" (tarjima muallifga tegishli – M.B.) Vatan ham xuddi mana shu uydek bizga qadrli, ajdodlar yodi va xotirasini saqlaydi. Ammo uyda paydo bo'lgan sharpalar sabab uyning bir qismi roviy tomonidan qulflanadi. Ular uyning narigi qismida o'zlarining ko'plab shaxsiy buyumlarini qoldirishadi, ammo qaytib kirib olishga jur'at eta olishmaydi. [1, b.364] Hikoyada uyning zabt etilishi, "Istilo" hikoyasida zabt etilishi, istilodan keyingi jarayonlar, mustamlakachilarning g'oya va fikrlari ham bilvosita ramzlar orqali tasvirlangan.

Keyingi juftlik: X. Kortasarning "Mixlab tashlangan eshik" va N. Eshonqulning "Ochilmagan eshik" hikoyalari. "Mixlangan tashlangan eshik" hikoyasida Petrone mehmonxonada *eskib qolgan ko'zguli javon qo'shni nomerga kiriladigan eshikni ko'rib qoldi. Va har tun qo'shni xonadan chaqaloq yig'isini eshitib, uxlay olmaydi: ... go'yo biror joyi og'riyotganday, inqillagan, uzib-uzib, xo'rsinib arzi dod qilgan go'dak ovozi edi bu. Qo'shni xonada yashaydigan ayolning chaqalog'i deb o'ylaydi, hatto ustidan shikoyat qiladi. Ayol ketgach ham eshik*

ortidagi bu ovozlarning davom etadi. Aslida u eshik orqasida hech qanday go‘dak yo‘q edi. Bu chaqaloq ovozi Petronening qalbidan kelar edi. Bunday talqin qilishimizning sababi u ovozlarning tunda yolg‘iz qolganda eshitilar edi va Petrone uni o‘g‘il bola derdi. Demak, u mixlab tashlangan eshik esa qahramonning qalbi.

“Ochilmagan eshik” hikoyasida esa bir qishloq ayoli erining xiyonatini bilib tuyadigan qalbidagi his-tuyg‘ularining tasviri berilgan. Hikoya qahramonning ismi keltirilmagan, shunchaki kelinchak deb yuritiladi. Bu xiyonatga uchragan har bir kelinchak yoxud ayol bo‘lishi mumkin. Buning natijasida qahramon his qilayotgan kechinmalar u yoki bu ayolning ko‘ngildan kechirgan hislari bilan o‘xshashlik kasb etadi. Kelinchak qalbidagi shubha-gumonlarni o‘zining savollarini turmush o‘rtog‘idan so‘rolmaydi. Hikoya davomida esa omborning eshigi qulfi zanglab ochilmaydi. Bu detal kelinchakning qalbiga ishora qiladi.

**Natijalar va muhokama.** Nazar Eshonqulning ko‘plab asarlarida tun tasviri ko‘zga tashlanadi. Tundagi sukunat asli kishi vujudidagi hayotga ishtiyoqining mahv bo‘lishidir. Xalqning “Noumid – shayton” maqoli asardagi voqealarni sharhlashda muhim funksiyani bajaradi. Inson yaralishidan unga raqib iblis yerda, samoda, tog‘-ummonda hozir bo‘ladi. Xususan, tunda jin, shaytonlar nayrang-uhiyasiga sharoit ko‘payadi. Ular qutqusi, vasvasasi bois kishi muqaddas ne‘mat iymondan ayrilganini idrok etmaydi, shu sabab Yaratgandan doim panoh tilanadi. (3, b.124) E‘tiborli jihati shundaki, quyidagi tadqiq ostiga olingan to‘rt hikoyada biroz farqli bunda voqealar rivoji ( “*Mixlab tashlangan eshik*”, “*Zabt etilgan uy*”), qahramonlarning ruhiy kechinmalari ( “*Ochilmagan eshik*”, “*Istilo*” ), asosan, tunda sodir bo‘ladi.

“Mixlab tashlangan eshik”: “*Soat to‘qqiz deganda o‘rnidan turdi, ko‘zlaridan hali uyqu ketmagan daqiqalarda yarim kechasi uni qandaydir go‘dak yig‘isi bezovta qilganiga xayoli ketdi.*”(5)

“Ochilmagan eshik”: “*U endi har kuni tuni bilan yig‘lab chiqar, ko‘z yoshlari ko‘nglidagi ishonch, sadoqat va muhabbatni sekin yuvib borardi. Gumon, shubha, ranju alamlar oqimi esa uni nomsiz tomonlarga oqizib ketmoqda edi.*” (2, b.177)

Yuqoridagi ikki hikoyada tasvirlangan tunning ahamiyati shundaki, inson kunduz insonlar qurshovida o‘zining kundalik vazifalari yoki kasbi bilan band bo‘ladi. Tunda esa har bir kishi o‘zining qalbi bilan yolg‘iz qoladi. Bu esa kishiga o‘ylash, yurak va aql, ishonch va ishonchsizlik, muhabbat va nafrat, umid va umidsizlik o‘rtasida o‘zaro bahs-munozara, kurashga sharoit yaratadi. Xulio Kortasarning qahramoni Petrone ham kun bo‘yi savdo ishlari bilan horib-tolib tunda hamma uyquda vaqti qalbining ovozini chaqaloq qiyofasida eshitsa, Nazar Eshonqul asaridagi kelinchak tunda hayoti hamda turmushi haqida chuqur mulohazalar yuritadi, xotirlaydi, o‘ksinadi. Shu o‘rinda asarga F.M. Dostoevskiyning “Ma’suma” hikoyasidan parcha (*Senga qanday jannat yaratib berardim, bilmaysan*) epigraf sifatida olinganligi bu hikoyaning sentimental hikoya ekanligini, yechim ham shunga mos ekanligini izohlab ketish o‘rinli degan fikrga keldik.

“Zabt etilgan uy”: *“O’sha kechasi men chanqagan edim va uxlashimizdan oldin Irinaga oshxonaga bir stakan suv ichish uchun ketayotganimni aytdim. Yotoq xonasining eshigidan (u to‘quvchi edi) oshxonadagi shovqinni eshitdim; oshxona bo‘lmasa, hammom...”* (tarjima muallifga tegishli – M.B.) (4)

*“Shahar markazidagi maxluq esa har kecha tinmay o‘kirar va u ajal anqiyotgan bu tovushdan qochib shahardan uzoqlarga ketib qolgisi kelardi ”* (2, b.240) “Istilo”/ “Evolutsiya” hikoyasida esa voqealar rivoji, asosan, tunda ro‘y beradi. Tunda qorong‘ulik yerni zabt etishi, yuqoridagi ikki hikoyada mustamlakalik aynan shu tunning qora ekanligi bilan bog‘liqdir.

**Xulosa.**

“Mixlab tashlangan eshik”	“Ochilmagan eshik”
<ul style="list-style-type: none"> <li>●Eshik mixlab tashlangan</li> <li>●Eshik insonning ichki dunyosining “eshigi”</li> <li>●Petronening ichki “men”i chaqaloq tarzida yangragan</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>●Eshik qulflangan, qulf buzilib ochilmadi</li> <li>●Eshik insonning ichki dunyosining “eshigi”, shu bilan birga shubha-gumonlar ham o‘sha yerda.</li> </ul>

	<p>●Chaqaloq kutilgan, ammo yo‘q.</p>
--	---------------------------------------

Xulosa o‘rnida ikki hikoyada ham mualliflar eshik badiiy detali orqali ko‘ngil timsolini chizishga urinishgan. Quyidagi jadval orqali yuqoridagi keyingi ikki hikoyaning o‘xshash va farqli jihatlarini xulosalab tahlil qilamiz:

Umumiy xususiyatlar:	<i>“Zabt etilgan uy”</i>	<i>“Istilo”/ “Evolutsiya”</i>
<p>1. Ta’qib</p> <p>2. T un tasviriga alohida e’tibor berilgan.</p> <p>3. Ist ilo mavzusida.</p>	<p>1. Qahramonl arning ismi mavjud: Iren va roviy.</p> <p>2. Istilo qilingan Vatan uy timsolida keltirilgan.</p> <p>3. Istilochilar tasvirlanmagan, sharpa obrazi orqali berilgan.</p> <p>4. <i>Biz ketishdan oldin o'zimizni dahshatli his qildim; Old eshikni mahkam yopdim va kalitni kanalizatsiyaga uloqtirdim.</i> (4) Istilodan keyingi holat tasvirlanmagan qahramonlar uyni tark etishadi.</p>	<p>1. Bosh qahramon ismsiz.</p> <p>2. Istilo qilingan Vatan shahar timsolida keltirilgan.</p> <p>3. Istilo chilar tasviri batafsil ramzlar orqali keltirilgan: maxluq timsolida.</p> <p>4. – <i>Qo‘zichoq, – dedi barvasta. – Biz adashibmiz. U qochib qolibdi. Bu yerda hech zog‘ yo‘q. Aftidan, bu qo‘zichoq adashib kirib qolganga</i></p>

		<p><i>o‘xshaydi.</i> (2, b.263)</p> <p>Istilodan keyingi holat tasvirlangan, qahramon <b><i>qo‘zichoqqa</i></b> aylanadi.</p>
--	--	---

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bo‘riboeva Muqaddas Zayniddinovna. (2024). ZAMONAVIY HIKOYALARDA SHARPA OBRAZI TALQINI. Konferensiyalar | Conferences, 1(4), 363–369.
2. N.Eshonqul. Saylanma I (Hikoyalar). – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.
3. Rasulova, U. BESAMAR UMR MANZARALARI. Hozirgi adabiy jarayon masalalari [Matn]. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. – 200bet.
4. WordPress.com. “House Taken Over” (“Casa Tomada”) by Julio Cortazar. Translated by Paul Blackburn. – 3 p.
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
6. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
7. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).